



PEDAGOGIK MAHORATNING TARKIBIY QISMI VA SIFATI

*Abdullayeva Ilmira Boltayevna**Xiva pedagogika kollejining "Pedagogika, psixologiya"
kafedrasini o'qituvchisi*

Annotatsiya: Hozirda pedagoglik faoliyatning alohida shakli sifatida o'z malakasini oshirib borishga ehtiyoj ham ortib boraveradi. Maqolada o'qituvchi pedagogik mahoratini oshirishning asosiy yo'nalishlari haqida so'z boradi.

Kalit so`zlar: faoliyat, pedagogik mahorat, pedagogik faoliyat, o'qituvchi, pedagogik qobiliyat, muloqot, pedagogik texnika, pedagogik odob, pedagogik madaniyat, pedagogik nazokat.

Hozirgi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'larning jahon ta'limga tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq. Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. O'qituvchining mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar bir-biri bilan uyg'unlashib mukammal dars sifatini shakllantiradi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'limg-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin. O'zbekistonning milliy mustaqillikka erishishi va hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, tarixiy va ma'naviy o'zgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida tub burilishni boshlab berdi. Endilikda barcha sohani mamlakatning milliy ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqib avlod-ajdodlarimizning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatlari hamda tarixiy tajribalarini hisobga olgan holda rivojlantirish muhim dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bu esa respublikaning milliy davlat sifatida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy kamol toptiruvchi o'z taraqqiyot yo'lini rivojlantirish, milliy istiqlol mafkurasini qaror toptirish va uni barcha



xalq ommasi ongiga singdirish zaruriyatini taqozo etadi. Bu nafaqat hozirgi avlod taqdiri, balki keljak avlodlarning taqdiri ham shunga bog‘liq ekanligini anglatadi. Ma’lumki, har qanday jamiyatning keljagi yosh avlodning qanday ta’lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog‘liq. Ana shunday avlodgina mamlakat oldida turgan umum davlat ahamiyatiga molik vazifalarni bajarishga qodir bo‘lib, o‘z xalqining tarixiy taqdirini belgilab bera oladi. Shunga ko‘ra yosh avlodni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifalarni esa asosan xalq ta’limi tizimidagi muassasalar va bu muassasalarda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchi murabbiylar bajara oladi. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» ko‘p sonli o‘qituvchilar jamoalari oldiga Vatan ravnaqi uchun hormay- tolmay xizmat qila oladigan, buyuk Vatan yo‘lida o‘z jonini ayamaydigan yoshlarni tarbiyalashdek mas’uliyatli talabni qo‘ydi. Bu talablar har bir o‘qituvchida to‘la mujassamlangan bo‘lishi lozim. Zero, maktabga ilk bor qadam qo‘ygan bola dunyoning, hayotning sir - asrorlarini o‘qituvchidan o‘rganadi. O‘qituvchi esa bolaga o‘z bilganini o‘rgatadi. Agar bolani chuqur bilimli, e’tiqodli, madaniyatli qilib tarbiyalamoqchi bo‘lsak, shu fazilatlar o‘qituvchida mujassamlangan bo‘lmog‘i zarur. O‘qituvchilik sharaflı, lekin juda murakkab kasbdır. Yaxshi o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘ziga yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiyy qonun- qoidalari, tamoyillar, umumlashtirilgan metodik g‘oyalar bayon etiladi, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini e’tiborga olish ta’kidlanadi. Maktab hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xil va murakkabdir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar ko‘p uchrab turadi. Bu esa o‘qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik va yuksak pedagogik mahorat hamda ijodkorlikni talab etadi. Biror kasbning haqiqiy ustasi bo‘lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma’lum jismoniy va ruhiy xislatlar, puxta tayyorgarlik, ayrim shaxsiy sifatlar bo‘lishi kerak. Pedagoglik kasbini tanlagan kishi avvalo, sog‘lom bo‘lishi, so‘zlarni to‘g‘ri va yaxshi talaffuz qila olishi, bosiq va asablari joyida bo‘lishi, boshqalar bilan muomalada o‘zini tuta olishi zarur. Shuningdek, o‘qituvchida bolalarni yoqtirish, ular bilan ishlashga mayli borlik, xushmuomalalik, kuzatuvchanlik, keng fikrlay olish, tashkilotchilik, o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjud bo‘lishi zarurdır. Pedagogik faoliyat – yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta’lim-tarbiya beri shishi bilan shug‘ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. «Tegishli ma’lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega», - deyiladi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunda. O‘qituvchilik faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgandır. O‘qituvchining barkamol insonni tarbiyalash, unda milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarkib toptirish



vazifasi eng olijanob, yuksak va shu bilan birga eng murakkab vazifadir. Har bir bola o‘z xulq- atvoriga, xarakteriga ega. Bolalarni tarbiyalashda ularning ana shu o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o‘rganish nihoyatda murakkab. Bunda odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligiga mos keladigan maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko‘rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim. O‘qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning kasbnomasida ifodalanadi. O‘qituvchining pedagogik faoliyat madaniyati tizimida pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari pedagogik texnika, pedagogik odob, pedagogik muloqot madaniyatining roli katta ekanligi e’tirof etilgan. Mazkur muammoni ham pedagogik, ham psixologik jihatdan ilmiy –nazariy, uslubiy –tashkiliy hamda amaliy jihatdan tadqiq qilgan Yu.P.Gonobolin, N.V.Kuzmina, A.N.Sherbakov, V.A.Selastenin, L.I.Ruvinskiy, V.N.Kuxarev, I.A.Zyazyun N.N. Tarasevich, M.G.Davletshin, K.Zaripov S.Rajabova, B.Xo‘jaev va boshqalar o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligida pedagogik texnikaning muhim ahamiyat kasb etishini alohida e’tibor bilan qayd qiladilar. L.I.Ruvinskiy o‘qituvchining pedagogik mahorati tizimida pedagogik texnikaning alohida ahamiyatga ega ekanligini qayd qilar ekan, shunday yozadi: “O‘qituvchining pedagogik texnikasi – bu shunday bir malakalar yig‘indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko‘rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o‘z fikrlari va qalbini yetkazish imkonini beradi” Pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning yana bir malakalar tizimi shakllanganki, ularsiz o‘quv-tarbiya jarayonini qurish, amalga oshirish o‘qitish va, tarbiyalash samaradorligini oshirish mushkul. Bu malakalar pedagogik nazariya va amaliyotda kasb-kor malakalari nomini olgan. Tajribaning ko‘rsatishiga kasb-korlik malakalari ta’lim oluvchilarning o‘qish-o‘rganish jarayonidagi faolligini oshirishga, mashg‘ulotlarda o‘quvchi-talabalar uchun jonli, ishchan muhitni yaratishga, axborotlarni o‘qituvchi tomonidan jonli, ta’sirchan bayon etish mikromuhitni yaratishda, informatsiyalarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishni aniq prognoz qilishga ko‘maklashadi. Pedagogik faoliyatning dastlabki o‘ziga xosligi shundan iboratki, u bilan turli ijtimoiy qatlama a’zolari, ishlab chiqarish ishlarini bajarish jarayonida hamma shug‘ullanadi. Chunki, bu faoliyat tarbiyalashga moyillikni anglatuvchi inson tabiatiga xos xususiyat hisoblanib, u ota-onalar va qirindosh-urug‘lar, yoshi katta do‘sst - o‘rtoqlar, jamoadoshlar, o‘quv, ishlab chiqarish guruhlari, rahbarlar, lavozimdagи kishilar va hokazoni qamrab oladi. Ammo bularning barchasi noprofessional pedagogik faoliyat hisoblanadi. Ma’lumki, har bir fan mustaqil o‘quv maqsadi, mazmuni va o‘zining o‘rganish mavzusi (predmeti) va metodiga ega. Mahorat – bu alohida qudrat. Haqiqiy usta mehnat faoliyati chog‘idagina go‘zal bo‘lganidek, mohir – tajribali o‘qituvchi o‘quv jarayonini tashkil etishda, olib borishdagi mahorati, pedagogik ishga qobiliyatligi bilan jamoasi orasida obro‘ orttiradi va pedagoglik faoliyatini go‘zallashtiradi. Pedagogik mahoratga etishish o‘qituvchining muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi.





Pedagogik mahoratning mazmunida quyidagi o'zaro bog'liq bo'lgan asosiy qismlarini ajratish mumkin:

1. Pedagogik insonparvarlik yo'nalishi.
2. Ixtisos-mutaxassislikka doir bilimlar. (kasbiy bilimlar)
3. Pedagogik qobiliyat.
4. Pedagogik texnika (ko'nikma-iqtidor).

Bu maqsad va vazifalar o'qituvchi – tarbiyachini zamon bilan hamnafas bo'lish, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko'rishga o'rgatadi. Har bir pedagog shaxsida jamiyatning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini tasavvur qilish, ularni vijdon elagidan o'tkazib, aniq bajarish uchun bor imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga yo'llash hamda o'z faoliyatiga ijodiy yondoshish malakalarini hosil qiladi.

Ibn Sino "Tadbiri manozil" asarida o'qituvchining insonparvar bo'lishi to'g'risida fikr yuritib ota-onasi o'z bolasi uchun o'qituvchi tanlayotganda uning to'g'ri so'z, halol, toza-ozoda va bolalarni sevuvchi kishi bo'lishiga e'tibor berish lozim deb aytadi. O'qituvchi yuksak fazilatlar egasi bo'lishi, shu bilan birga yetuk mahoratlari bo'lishi jamiyat uchun, kelajak avlod uchun juda muhimdir. Shundagina mukammal, komil shaxslarni Vatanga yetkazib beramiz. Vatanga muhabbat, istiqlolga sadoqat ruhida tarbiyalangan yosh avlod hayotini faqat ezgu ishlarga safarbar qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Shodmonova. Maktabgacha pedagogika. T., «Fan va texnologiyalar», 2005.
2. A. Holiqov. Pedagogik mahorat. T., «Iqtisod — Moliya», 2010.
3. U. Tolipov, M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T., «Fan», 2005.
4. Maktabgacha ta'limning davlat standarti. 0 'zPFITI. T., 1995.
5. P. Yusupova. Maktabgacha pedagogika. T., «O'qituvchi», 1996.

